

“TBC Bank” ATBning “TBC Stars sovrinlari o‘yini” dasturini o‘tkazish qoidalari

MUNDARIJA

1. Umumiy shartlar
2. Atama va ta’riflar
3. Dastur tashkilotchisi
4. Dasturda ishtirok etish va sovrinlar o‘yini tartibi
5. Ishtirokchilarning huquq va majburiyatlari
6. Bankning huquq va majburiyatlari
7. Mas’uliyat
8. Nizolarni hal etish tartibi
9. Boshqa shartlar

1. UMUMIY SHARTLAR

1.1. Ushbu qoidalar “TBC Bank” ATBning (keyingi o‘rinlarda – Bank) “TBC Stars sovrinlari o‘yini” dasturi (keyingi o‘rinlarda – Dastur) Bank mijozlarining Dasturda ishtirok etish shartlari va tartibini belgilaydi.

1.2. Ushbu Dastur qoidalari lotereya yoki boshqa tavakkalchilikka asoslangan o‘yin hisoblanmaydi, bunda Dastur ishtirokchilari Dasturda ishtirok etish bilan bog‘liq mulkiy xavflarni o‘z zimmalariga oladilar. Dasturni o‘tkazish tartib-taomili ishtirokchilar tomonidan biron-bir to‘lov to‘lash bilan bog‘liq emas.

“TBC Stars” dasturining yulduzlari pul mablag‘i hisoblanmaydi, pul ekvivalentiga ega emas, naqd pulga ayirboshlanmaydi va faqat Bankning sodiqlik dasturi doirasida hisoblanadi.

1.3. Ushbu Qoidalar O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 367-moddasi va 369-moddasining ikkinchi qismiga muvofiq ommaviy oferta hisoblanadi. Ushbu Qoidalar Bankning rasmiy veb-saytida - www.tbcbank.uz manzilida joylashtirilgan.

1.4. Dastur boshlanish sanasi: 18.05.2026; Dasturning tugash sanasi: 03.07.2026. Dasturning amal qilish muddati: boshlanish sanasidan tugash sanasigacha bo‘lgan butun muddat davomida.

1.5. Dastur o‘tkaziladigan joy: O‘zbekiston Respublikasi hududi.

1.6. Dasturning amal qilish muddati davomida quyidagi shartlarga javob beradigan Bankning har qanday verifikatsiyalangan mijozni Dastur ishtirokchisi bo‘lishi mumkin:

— Dastur amal qilishi davomida TBC UZ mobil ilovasidagi “TBC Stars” dasturining Yulduzlarini almashtirish yo‘li bilan O‘yinda ishtirok etish uchun kamida bitta Chipta xarid qilgan bo‘lsa. Bitta Chiptani xarid qilish uchun zarur bo‘lgan Yulduzlar soni TBC UZ mobil ilovasining “TBC Stars” bo‘limida ko‘rsatilgan.

1.7. Bank xizmatlari va mahsulotlarini olish, ulardan foydalanish tartibi va shartlari Bankning rasmiy veb-saytida joylashtirilgan va/yoki Bankning mobil ilovasi orqali tanishish mumkin bo‘lgan “TBC Bank” ATBning bank mahsulotlari va xizmatlarini taqdim etish bo‘yicha Bosh Shartlari (bundan keyin – “BSh”) hamda Bank mahsulotlarining boshqa shartnomalari bilan tartibga solinadi.

1.8. Bank mijozni 1.6-banddagi shartlarga muvofiq ravishda yutuqli o‘yinda ishtirok etish uchun chipta (lar) ni sotib olib, Dastur amal qilish muddati davomida ushbu Dasturning qoida va shartlarini qabul qiladi va ularga rozilik bildiradi.

2. ATAMA VA TA'RIFLAR

Bank	“TBC Bank” aksiyadorlik tijorat banki.
Dastur	“TBC Bank” ATBning “TBC Stars sovrinlari o'yini” dasturi.
Bank mijozi	Bank xizmatlari va mahsulotlaridan foydalanuvchi jismoniy shaxs.
Ishtirokchi	Dastur ishtirokchisi sifatida ushbu Qoidalar shartlariga mos keladigan Bank mijozi.
Ilova	AppStore va Playmarket platformalarida smartfon qurilmalari uchun mavjud bo'lgan TBC UZ mobil ilovasi.
TBC Stars	Bankning sodiqlik dasturi bo'lib, uning doirasida mijozlar faollik uchun Yulduzlarni to'playdilar.
Yulduz	Ilovada muayyan harakatlarni amalga oshirganlik uchun hisoblanadigan “TBC Stars” sodiqlik dasturi birligi.
Chipta	Ilovaning “TBC Stars” bo'limida Yulduzlar uchun sotib olinadigan va O'yinda ishtirok etish huquqini beruvchi virtual chipta.
O'yin	Ishtirokchilar orasidan g'oliblarni randomayzer yordamida tasodifiy tanlash
Sovrin	G'olibga beriladigan tasdiqlangan Sovrinlar ro'yxatidan jismoniy sovrin.

3. DASTUR TASHKILOTCHISI

3.1. Dastur tashkilotchisi Bank hisoblanadi.

3.2. Bankning yuridik manzili va aloqa ma'lumotlari: 100015, Toshkent sh., Mirobod tumani, Fidokor ko'chasi, 10-B uy. Telefon: +99878 777 2727. Pochta: contact@tbcbank.uz.

4. DASTURDA ISHTIROK ETISH VA SOVRINLAR O'YINI TARTIBI

4.1. Dasturda ishtirok etish uchun mijoz dasturning amal qilish muddati davomida TBC UZ mobil ilovasidagi “TBC Stars” bo'limida yulduzlarni almashtirib, bir yoki bir nechta Chipta sotib olishi lozim.

4.2. Ishtirokchi cheklanmagan miqdordagi chiptalarni sotib olishi mumkin. Har bir chipta yutuqli o'yinda alohida ishtirok etish imkonini beradi va yutish imkoniyatini oshiradi.

4.3. O'yin onlayn formatda, sertifikatlangan tasodifiy raqamlar generatori (randomayzer) yordamida o'tkaziladi. O'yin o'tkazish jarayoni Bank tomonidan videoga yozib olinadi va keyinchalik Bankning rasmiy Telegram-kanalida e'lon qilinadi.

4.4. Birinchi bosqich sovrinlar ro'yxati:

№	Sovrin nomi	Soni
1	iPhone 17 256GB Black Model A3520	1
2	PocketBook 617 oq elektron kitobi	1
3	Samsung Galaxy Tab A9 8/128 GB plansheti	1
4	Android B1 720P mini proektor	1

5	Yandex Station Lite Alisa bilan aqlli kolonkasi	2
6	Mi Box S 2-avlod TV pristavkasi	5
7	Deerma DX700 / DX700S changyutgichi	8
8	Deerma F600 havo namlagichi	10
9	Xiaomi Smart Mi Band 9 Global Version aqlli bilaguzugi	5
10	BQ HB1234SS 3 ta 1da qo'1 blenderi	10
11	BQ elektr choynagi	7
12	Xiaomi Redmi Buds 6 Active simsiz quloqchinlari	8
13	Hoco W35 quloqchinlari	5
14	22.5W 20000 mA/soat Power Bank Type-C 2024 tashqi akkumulyatori	4
15	TBC brendli ryukzaklar	12
16	TBC Stars logotipli termos	20

Ikkinchi bosqich sovrinlar ro'yxati:

№	Sovrin nomi	Soni
1	Apple Watch Series 10 42 mm aqlli soati	1
2	Samsung A35 128GB Navy smartfoni	1
3	Samsung Galaxy Tab A9 8/128 GB plansheti	1
4	Yandex Station Lite Alisa bilan aqlli kolonkasi	2
5	Mi Box S 2-avlod TV pristavkasi	5
6	Deerma DX700 / DX700S changyutgichi	8
7	Deerma F600 havo namlagichi	10
8	Xiaomi Smart Mi Band 9 Global Version aqlli bilaguzugi	5
9	BQ HB1234SS 3 ta 1da qo'1 blenderi	10
10	BQ elektr choynagi	7
11	Xiaomi Redmi Buds 6 Active simsiz quloqchinlari	8
12	Hoco W35 quloqchinlari	5
13	22.5W 20000 mA/soat Power Bank Type-C 2024 tashqi akkumulyatori	4
14	TBC brendli ryukzaklar	13
15	TBC Stars logotipli termos	20

4.5. Birinchi bosqich o'yinida ishtirok etish uchun 2026-yil 7-iyun kuniga qadar (shu kun ham hisobga olingan holda) sotib olingan biletlar qabul qilinadi. Birinchi bosqich o'yini 2026-yil 10-iyun kuni o'tkaziladi. Ikkinchi bosqich o'yinida ishtirok etish uchun 2026-yil 30-iyun kuniga qadar (shu kun ham hisobga olingan holda) sotib olingan biletlar qabul qilinadi. Ikkinchi bosqich o'yini 2026-yil 3-iyul kuni o'tkaziladi. Belgilangan muddatlardan keyin sotib olingan biletlar tegishli bosqich O'yinida ishtirok etishga qo'yilmaydi.

4.6. Bitta Ishtirokchi yutuqli o'yinning bitta bosqichida ko'pi bilan bitta Sovrin yutib olishi mumkin.

4.7. G‘olib Bank tomonidan yutuqli o‘yin o‘tkazilgandan keyin 10 ish kuni ichida push-bildirishnoma va/yoki boshqa aloqa kanallari orqali xabardor qilinadi.

4.8. Sovrinni olish uchun G‘olib unga xabarnoma yuborilgan sanadan boshlab 30 (o‘ttiz) ish kuni ichida xabarnomada ko‘rsatilgan Bank bo‘limiga murojaat qilishi shart.

G‘olib sovrinni olishdan bosh tortgan yoki belgilangan muddatda murojaat etmagan taqdirda, uning sovrinni olish huquqi bekor qilinadi. Bunday hollarda Bank ushbu sovrinni Aksiyaning boshqa ishtirokchilari o‘rtasida qayta o‘ynashga haqli.

4.9. Sovrin G‘olibga shaxsini tasdiqlovchi hujjat taqdim etilganda shaxsan topshiriladi. Sovrinni uchinchi shaxsga topshirishga faqat G‘olib tomonidan bunday shaxsga berilgan notarial tasdiqlangan ishonchnoma mavjud bo‘lgandagina yo‘l qo‘yiladi.

4.10. Sovrinni pul ekvivalenti bilan almashtirish yoki uni pul shaklida to‘lash nazarda tutilmagan.

5. ISHTIROKCHILARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

5.1. Ishtirokchi quyidagi huquqlarga ega:

5.1.1. Bank qoidalari va shartnomalarida belgilangan hajm va tartibda Dastur to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni olish;

5.1.2. ushbu Qoidalarning 1.6-bandiga muvofiq bo‘lgan taqdirda, ushbu Qoidalarga muvofiq Ishtirokchi maqomini olish.

5.2. Ishtirokchi ushbu Dastur qoidalari bilan tanishib chiqishi shart. Bank Mijozining Dasturda ishtirok etishi avtomatik ravishda bunday Bank Mijozining ushbu Qoidalar bilan tanishganligini va ularga to‘liq roziligini anglatadi.

5.3. Ushbu Dasturda ishtirok etib va uning Qoidalariga rozilik bildirib, Dastur ishtirokchisi sovrinlarni topshirish vaqtida olingan o‘z fotosuratini Bankning axborot aloqa kanallarida joylashtirishga rozilik beradi.

6. BANKNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

6.1. Bank ushbu Qoidalarga muvofiq Dasturni o‘tkazishi va Sovrinlarni topshirish majburiyatlarini bajarishi shart.

6.2. Mazkur Dastur ushbu Qoidalarning 1.4-bandiga muvofiq, Dasturning butun amal qilish muddati davomida Bank tomonidan bekor qilinishi mumkin emas. Bank, shuningdek, mazkur Dasturning amal qilish muddatini bir tomonlama tartibda uzaytirish huquqini o‘zida saqlab qoladi va bu haqda mijozlarga har qanday aloqa kanali orqali xabar beradi.

6.3. Bank Dastur ishtirokchilarini identifikatsiya qilish maqsadida ishtirokchilarning shaxsiy ma‘lumotlarini so‘rovnoma o‘tkazish yoki O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi doirasida Dasturni o‘tkazish uchun boshqa ma‘lumotlar va hujjatlarni yig‘ish orqali to‘plash huquqiga ega.

6.4. Bank yutuqli o‘yin shartlarini bir tomonlama o‘zgartirish va Dastur to‘g‘risidagi qo‘shimcha ma‘lumotlarni <https://tbcbank.uz/> veb-saytida e‘lon qilish huquqini o‘zida saqlab qoladi.

6.5. Mijoz, Bank xavf-xatarlar va suiiste‘molchiliklar yuzasidan tekshiruv o‘tkazganidan so‘ng, sovrinni olishga da‘vogarlik qilishi mumkin. Bunda, agar Bank Mijoz noqonuniy, shubhali va/yoki

firibgarlik harakatlarini amalga oshirayotganini asosli deb hisoblasa, unga ushbu Qoidalar shartlarini bajarishni rad etish huquqini o'zida saqlab qoladi.

6.6. Bunda Bank quyidagilarni amalga oshirishi mumkin: (a) sotib olingan har qanday chiptalarni bekor qilish; (b) Mijozga Dasturda ishtirok etishni yoki sovrinlarga da'vogarlikni taqiqlash; (v) Mijozning kelgusi aksiyalar va o'yinlardagi ishtirokini bloklash; va/yoki (g) Mijozning hisobini to'xtatib qo'yish - agar u o'zining oqilona fikriga ko'ra, Mijozning harakatlari ushbu Qoidalariga zid deb hisoblasa va/yoki Mijoz Dastur shartlaridan noqonuniy foydalansa yoki uni biron-bir tarzda suiiste'mol qilsa. Bunga quyidagilar kiradi, lekin bular bilan cheklanmaydi:

- (i) bir nechta hisob qaydnomalarini yaratish;
- (ii) ro'yxatdan o'tkazish vaqtida noto'g'ri ma'lumotlar taqdim etish;
- (iii) ijtimoiy tarmoqlarda, veb-saytlarda, qidiruv tizimlarida yoki ommaviy tarqatishning har qanday shakli orqali yolg'on/noqonuniy/xato ma'lumotlarni ommaviy ravishda taqdim etish;
- (iv) haqiqiy hisob egasi nomidan harakat qiluvchi uchinchi shaxslarga kirish huquqini berish.

7. MAS'ULIYAT

7.1. Bankning Sovrinni topshirish majburiyati G'olibga yoki uning ishonchli vakiliga notarial tasdiqlangan ishonchnoma mavjud bo'lgan taqdirda sovrin topshirilgan vaqtdan boshlab bajarilgan hisoblanadi.

7.2. Dastur amal qilish muddati davomida texnik nosozliklar, tizimlardagi uzilishlar, xatolar yoki hamkorlar va xizmat ko'rsatuvchilar tomonidan majburiyatlarning bajarilmasligi natijasida yuzaga kelgan ushbu Qoidalar bo'yicha majburiyatlarning bajarilmasligi uchun Bank javobgar bo'lmaydi.

7.3. 7.2-bandda ko'rsatilgan holatlar yuzaga kelganda, Bank o'zining va hamkorlarining texnik tizimlarida yuzaga kelgan xatolar, uzilishlar va nosozliklarni bartaraf etish muddatlari hamda sanalarini mustaqil belgilash huquqini o'zida saqlab qoladi.

7.4. Uchinchi shaxslar va hamkorlarning qasddan va/yoki qasddan bo'lmagan harakatlari tufayli Bank tomonidan ushbu Qoidalar shartlarini bajarish imkoniyati yuzaga kelmagan taqdirda, Bank javobgar bo'lmaydi.

7.5. Ushbu Qoidalar bilan tartibga solinmagan barcha masalalar Bosh Shartlarga va Bank bilan Bank Mijozi o'rtasida tuzilgan boshqa shartnomalarga, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq tartibga solinadi.

8. NIZOLARNI HAL ETISH TARTIBI

8.1. Ushbu Qoidalardan kelib chiqadigan yoki ular bilan bog'liq bo'lgan barcha nizoli masalalar maslahatlashuvlar va muzokaralar yo'li bilan do'stona asosda hal etilishi lozim. Da'vo qilish tartibi majburiy.

8.2. Agar Tomonlar 8.1-bandga muvofiq nizolar va kelishmovchiliklarni hal qilishga erishmasalar, nizo Bank ro'yxatdan o'tgan joydagi O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq hal etilishi lozim.

9. BOSHQA SHARTLAR

9.1. Mazkur Qoidalar Bankning www.tbcbank.uz rasmiy veb-saytida joylashtirilgan.

- 9.2.** Dastur ishtirokchilari yuqorida ko‘rsatilgan veb-saytda tegishli o‘zgarishlarni tekshirish orqali Dastur shartlarining yangilanishini mustaqil ravishda nazorat qilishlari shart.
- 9.3.** Bank mijozlari TBC UZ mobil ilovasining “Qayta aloqa” bo‘limida shu haqda yozish orqali mazkur Dasturda ishtirok etishdan bosh tortish huquqiga ega.
- 9.4.** Bank xodimlari, Bank bilan affilangan shaxslarning xodimlari va ularning yaqin qarindoshlari Dasturda ishtirok etish huquqiga ega emas.

10. BANK REKVIZITLARI

Manzil: O‘zbekiston Respublikasi, 100015, Toshkent shahri, Mirobod tumani, Fidokor ko‘chasi, 10B-uy

STIR: 207318613

Bank kodi: 01180

Tel.: 78 777 27 27

E-mail: contact@tcbank.uz